

## HOZIRGI KUNDAGI EKALOGIK MUAMMOLAR, EKALOGIK TOZA ELEKTR ENERGIYASI OLIISH ORQALI EKALOGIYA BUZILISHINI OLDINI OLIISH CHORALARI

TODAY'S ECOLOGICAL PROBLEMS, ENVIRONMENTAL  
DEGRADATION BY OBTAINING ECOLOGICALLY CLEAN  
ELECTRICITY PREVENTIVE MEASURES

*Vahobov Shahbozbek Bobomurod o'g'li*

*Qo'qon davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti talabasi.*

*@shahboz\_vahobov. (90) 057-62-52.*

**Anotatsiya;** Ma'lumki hozirgi davrga kelib butun dunyoni tashvishga solayotgan muammolardan biri bu ekalogik muammolardir. Bunda rivojlangan va endi rivojlanayotgan davlatlar ham chetda qolayotgani yo'q bu muammo har bir davlatning qolaversa har bir odamni o'ylantiradigan va ularga yechim topishga undaydigan holatga keltirdi. Qolaversa har bir inson o'z salomatligi va avlodlari farovon yashashi uchun bu sohada yakdil harakat qilishi har qanday yo'l bilan ham tabiatni asrab qolish choralari amalda ko'rmog'i lozimdir. Ushbu maqoladi ekalogiyadagi muammolar tahlil etiladi va ularga yechimlar va fikrlar keltiriladi.

**Kalit so'zlar;** Maishiy chiqindilar, sof elektr energiyasi, plastik, havo ifloslanishi.

Bugungi kunga kelib har bir davlatda istaymizmi yo'qmi ko'p sohalardagi rivojlanish va iqtisodiy ishlab chiqarishning salbiy tomonlariga e'tibor bermaslik oqibatida ekalogiyada qaytarib bo'lmas darajadagi buzilishlar kelib chiqmoqda. Bundan 300 yil oldin sanoat inqilobi boshlanganidan beri havoning ifloslanishi muammosi doimiy ravishda o'sib bormoqda. To'rtta asosiy omil havoning ifloslanishini kuchaytirdi: o'sib borayotgan sanoatlashtirish; trafikni oshirish; tez iqtisodiy rivojlanish; va yuqori energiya iste'moli darajasi. Mavjud ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining asosiy ifloslantiruvchi moddalar bo'yicha ko'rsatmalari ko'plab yirik shahar markazlarida muntazam ravishda oshib boradi. So'nggi yigirma yil ichida ko'plab sanoati rivojlangan mamlakatlarda havo ifloslanishi bilan bog'liq muammolarni nazorat qilishda muvaffaqiyatga erishilgan bo'lsada, havo sifati, ayniqsa rivojlanayotgan dunyoning yirik shaharlarida yomonlashmoqda. Atrof-muhitni ifloslantiruvchi moddalarning ko'plab shaharlarda axoli sog'lig'iga salbiy ta'siri katta tashvish tug'diradi, bu yerda o'lim va kasallanishning ortishiga, o'pka funksiyasi yetishmovchiligi va yurak-qon tomir va neyroxulq-atvorga ta'sir qiladi. Maishiy yonish mahsulotlari tufayli bino ichidagi havoning ifloslanishi rivojlanayotgan mamlakatlarda ham asosiy muammo hisoblanadi. Havoni ifloslantiruvchi moddalar manbai shahar muhitida eng keng

tarqalgan havo ifloslantiruvchi moddalarga oltingugurt dioksidi (SO<sub>2</sub>), to'xtatilgan zarrachalar (SPM), azot oksidlari (NO va NO<sub>2</sub>, birgalikda NO deb ataladi), ozon (O<sub>3</sub>), uglerod oksidi (CO) va qo'rg'oshin (Pb). Statsionar manbalarda qazib olinadigan yoqilg'ining yonishi SO<sub>2</sub> ning ishlab chiqarilishiga olib keladi, YO'QX va zarrachalar, shu jumladan gazning zarrachaga aylanishi natijasida atmosferada hosil bo'lgan sulfat va nitrat aerezollari. Yoqilg'i yoqilg'isi bilan ishlaydigan avtomobillar NO ning asosiy manbalari hisoblanadi, CO va Pb, dizel yoqilg'isi bilan ishlaydigan dvigatellar esa katta miqdorda zarrachalar chiqaradi. Bu esa havoning ifloslanishini yana ham kuchaytiradi.

Yana bir muhim global ekologik muammolardan biri bu maishiy chiqindilardir. Bunga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida qattiq maishiy chiqindilar aholi jon boshiga har yili 1 foizga oshmoqda. Hozirgi kunda chiqindilarning 800 dan ortiq turi qayd etilgan bo'lib, ular sonining kelgusida yanada ortishi bashorat qilinmoqda. Energetika, rangli va qora metallurgiya, kimyo sanoati va qurilish industriyasi ob'ektlari chiqindi hosil qiluvchi, atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy manbalar hisoblanadi. Aytish joizki, atrof-muhitni ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilaridan muhofaza qilish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik toza texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish muammolari bilan uzviy bog'liqdir. Ko'p asrlar davomida chiqindilarni noto'g'ri boshqarish tabiiy resurslarning o'zgarishiga, tabiatning kutilmagan o'zgarishlariga sabab bo'lmoqda. Tibbiyot chiqindilari atrof-muhit va uning deyarli barcha elementlari — suv, havo, tuproq, oziq-ovqat mahsulotlarining ifloslanishi sababli aholi orasida nafaqat to'g'ridan-to'g'ri, balki, bilvosita infeksiya va noinfeksiya kasalliklarning tarqalishi xavfini tug'diradi. Shuning uchun mazkur muammoga jiddiy yondashish taqozo etilmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, bu chiqindilarning 80 foizini organik moddalar tashkil qiladi va ularni qayta ishlash natijasida katta miqdordagi energiya va energiya tashuvchilarni ishlab chiqarish mumkin. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, maishiy chiqindilar butun dunyoda arzon xomashyo hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi uning 85 foizini qayta ishlash mumkinligini ko'rsatmoqda. Shimoliy Yevropa mamlakatlarida allaqachon chiqindilarni alohida yig'ish yo'lga qo'yilgan, natijada qog'oz, plastik, alyuminiy kabi xomashyoning katta qismi qayta ishlashga yuboriladi. Bu jarayonning ekomuhitga ijobiy ta'siri juda katta. Chiqindilarni qayta ishlash energiya va xomashyoni sezilarli darajada tejaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Yaponiyada rezina va kabel buyumlarining 34 foizi, shisha buyumlarning 43 foizi, qog'oz va kartonning 54 foizi chiqindini qayta ishlash evaziga olinarkan. Bu borada Xitoy tajribasi yanada hayratlanarli. Ular alyuminiy, temir, mis kabi metallardan yasalgan buyumlarning 33 foizini, jun, ipak, charm-attorlik buyumlarining 34 foizini turli chiqindilarni qayta ishlashdan olishadi. Tabiiyki chiqindini qayta ishlash (CHQI) yo'lda qo'yilmagan ko'pgina joylarda chiqindilarni tashqi muhitga to'g'ridan to'g'ri tashlash tabiatni jiddiy ifloslanishiga olib kelmoqda. Bunday muammolarga

yechimlar topmas ekanmiz biz tabiatni qayta tiklanmas holatga solib qo'yamiz va bizning hatolarimizni to'g'rilab bo'lmaydi. Men yechim sifatida iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar uchun shuni tavsiya qilishim mumkinki sof energiya olish orqali davlatlar havo ifloslanishi va ekalogik muammolar kuchayishini sezilarli darajada kamayishga erishishi mumkin. Bu qanday ma'lumki iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarda xususan O'zbekistonda ham elektr energiyasining asosiy qismi issiqlik elektr stansiyalarida(IES) ishlab chiqariladi bunda asosan xomashyo sifatida ko'mir va mazut yoqiladi hammamizga ma'lumki ikkala xomashyoning yonishi natijasida juda ham ko'p zararli tutun va kul havoga chiqariladi bu o'z o'zidan havoni ifloslanishini keltirib chiqaradi. Elektr energiyasiga talab ortib borgani sayin xomashiyolar ko'proq yoqiladi shu barobarda atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar ham ortib boradi.

Ko'plab davlatlarda bu masalalarga yechim sifatida elektromobillardan foydalanish nazarda tutilmoqda mening fikrimcha elektromobillardan foydalanish ko'plab davlatlarda xususan energiyaning muqobil turidan foydalanmaydigan davlatlar uchun hech qanday foyda keltirmaydi, chunki bu davlatlarda elektromobildan foydalanish natijasida katta energiya istemoli vujudga keladi va bu istemolni qoplash uchun davlat yana ham ko'proq foydali qazilmalardan foydalanishga majbur bo'ladi va havoga yana ham ko'proq issiqxona gazlari chiqariladi, ikkinchidan bunday mamlakatlarda asosan chiqindini qayta ishlash yahshi yo'lga qo'yilmagan bu esa foydalanishdan chiqarilgan mashinalar ehtiyot qisimlarining shunchaki tashlab yuborilishiga hamda tabiatni ifloslanishiga olib keladi, shu o'rindi yana bir ma'lumot elektromobilni qayta ishlash davlatga oddiy avtomobilni qayta ishlashdan qimmatga tushadi bu esa iqtisodiyoti yetarli bo'lmagan davlatlarda bu sohaga e'tiborni sezilarli darajada kamaytiradi, undan tashqari elektromobillarda asosan litiy moddasi ishlatilganligi bois ular tabiatni yahshigina zaharlaydi yuqoridagilardan xolasa qilib elektromobillar faqatgina rivojlanib bo'lgan va energiya olishni muqobil yo'llariga o'tgan davlatlar uchun samara berishi mumkin.

Shu o'rinda takidlash lozimki tezlik bilan davlatlar enegiya olishning muqobil turlariga yani (GES, AES va SHES) o'tishi lozim bu nafaqat ekalogiyaga insonlarning keltirayotgan zararini kamaytiradi balki insonlar shunga majburdirlar chunki hech qaysi davlatlarning yerosti zahiralari abadiy emas ular chegaralangan, qazilmalardan samarali va oqilona foydalanish bizning burchimizdir zero bu boyliklarda kelajak avlodlarning ham haqqi bordir. Hozir aytib o'tilgan masalalar ekalogik muammoning bir qismi xolos hali uning e'tibor berilmayotgan va nazardan chetda qolayotgan qisimlari ham talaygina, bu muammolarga faqatgina davlatlar emas balki biz insonlar ham o'z xissamizni qo'shishimiz mumkin buning uchun insonlar chiqindilarni belgilangan joyiga tashlasalar, politylen mahsulotlardan kamroq foydalanib, atrof-

muhitga ozgina etiborliroq bo'lib va bir-birimizga nisbatan jamoat nazoratini o'rnatishni ta'minlash bo'lgani.

**Foydalanilgan adabiyotlar;**

1. <https://www.iloencyclopaedia.org/uz/part-vii-86401/environmental-health-hazards/item/499-air-pollution>
2. <https://www.standart.uz/ru/news/view?id=1018>
3. <https://eco.gov.uz/uz/site/news>